

Natyurmort



Natyurmort tasviriy san'at janri bo'lib, unda meva, gul, idish-tovoq, kitob, mato va boshqa shunga o'xshash jonsiz narsalar tasvirlanadi.

Akmal Ikromjonov – O'zbekistonning taniqli rassomi. U Toshkentda tug'ilgan va bolaligidan rasm chizishni yaxshi ko'rgan. Rassom ko'plab go'zal suratlar yaratib, butun hayotini san'atga baxsh etgan.

Uning ijodida **natyurmortlar** alohida o'rin tutadi. Suratlarida yorqin mevalar, gullar, milliy idishlar va maishiy buyumlarni ko'rish mumkin. Rassom eng oddiy narsalarning ham go'zalligini payqab, uni bo'yoqlar yordamida aks ettira oladi.

Akmal Ikromjonov ko'p yillardan buyon yosh rassomlarga saboq berib, ularning iste'dodini yuzaga chiqarishga hissa qo'shib kelmoqda. Uning asarlari muzeylar va shaxsiy kolleksiyalarda saqlanadi.



Akmal Ikromjonov
1952

- Rassom o'z natyurmortlarida ko'pincha O'zbekistonning anor, qovun, uzum va boshqa ne'matlarini tasvirlaydi.
- U hatto eng oddiy buyumlar ham surat qahramoniga aylanishi mumkin deb hisoblaydi.
- Uning ko'plab shogirdlari ham taniqli rassomlar bo'lib yetishgan.
- Akmal Ikromjonovning suratlari yorqin ranglari va iliq kayfiyati bilan ajralib turadi.



"Anor sharbati va anorlar"



"Gulli natyurmort"



1. Rassom o'z natyurmortlarida ko'proq nimalarni tasvirlaydi?
2. Uning suratlaridagi qaysi narsalar sizga ko'proq yoqdi? Nima uchun?
3. Sizningcha, nega rassom oddiy narsalar ham surat qahramoni bo'la oladi deb hisoblaydi?



Go'zal natyurmort yaratish uchun narsalarni diqqat bilan kuzatish, ularning shakli, rangi va qanday joylashganiga e'tibor berish lozim.



Anor butasi natyurmortini chizing.

Sizga kerak bo'ladi:

albom varag'i, oddiy qalam, o'chirg'ich, guash yoki akvarel bo'yoqlari, mo'yqalam, suv solingan stakan, qog'oz sochiqlar.

Rasm chizish bosqichlari:

1. **Yengil chiziqlar bilan** umumiy kompozitsiya: yirik anorlar, shox, barglar va gullarni belgilab oling.
2. **Shox, barglar va gullarni qo'shing.** Ularni varaqqa shunday joylashtiringki, ishingiz jonli va chiroyli chiqsin.
3. **Fonni guash yoki akvarel bilan bo'yang.** Fon uchun yashil, firuza yoki to'q yashil ranglarni tanlash mumkin.
4. **Anorlarni** qizil, to'q qizil, to'q sariq va sariq ranglar bilan **bo'yang.** Mevalar hajmli ko'rinishi uchun ularga och rangli jilolar qo'shing.
5. **Barglarni yashil rangning turli tuslariga,** gullarni esa oq, pushti va och pushti ranglarga bo'yang.
6. Soya, barg tomirlari, och rangli shtrixlar va **boshqa mayda detallarni qo'shing.** Bu natyurmortni ifodali va mukammal ko'rinishga keltiradi.

1



2



3



4

